



INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH SOHASIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR VA TENDENSIYALAR

TerDPI Falsafa kafedra o'qituvchisi

Hakimova Muyassar Rashidovna

TerDPI 4-kurs talabasi Salayeva Aziza

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson huquqlarini ta'minlashda yurtimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, inson huquqlarini ta'minlashdagi dolzarb muammolar, ularni bartaraf etishda, xalqaro huquqiy hujjatlarning tutgan o'rni, milliy institutlarning roli, dunyo tajribasidan inson huquqlarini ta'minlashda o'rinli foydalanish, inson huquqlarini oliy qadriyat sifatida e'tirof etilishida milliy qonunchiligimizdagi o'garishlar, demokratik qadriyatlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Inson huquqlari, qonun, demokratiya, oila, insonparvarlik, davlat, raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt, tinchlik, adolat, qonun ustuvorligi

Kirish

Inson huquqlari tushunchasi har bir inson tug'ilganidan boshlab ega bo'lgan, ajralmas va daxlsiz huquqlar to'plamini anglatadi. Ular insonlarning millati, irqi, jinsi, tili, dini, siyosiy e'tiqodi yoki boshqa ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar barcha insonlarga mutlaq teng ravishda taalluqlidir. Zamonaviy demokratik jamiyatlarda inson huquqlarining kafolatlanishi nafaqat huquqiy tizimning mustahkamligi, balki davlatlarning xalqaro majburiyatlarga sodiqligi va xalqaro hamjamiyat bilan hamkorligiga ham bog'liqdir. Inson huquqlari tushunchasi uzoq tarixiy jarayon natijasida shakllangan bo'lib, uning zamonaviy talqini asosan XX asrning o'rtalarida xalqaro hamjamiyat tomonidan mustahkam huquqiy asosga ega bo'ldi. Ikkinchi jahon urushi yillarida insoniyat boshidan kechirgan dahshatli fojialar inson huquqlarini xalqaro darajada himoya qilish zarurligini yanada yaqqol ko'rsatdi. Aynan shu davrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining tuzilishi inson huquqlarini xalqaro darajada kafolatlash yo'lidagi eng muhim qadamlardan biri bo'ldi. Hozirgi kunga qadar inson huquqlari sohasida turli xil hujjatlar qabul



qilingan. Xususan, Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, va boshqa shu kabi hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ular inson huquqlarini ta'minlashda mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi. Ularning orasida 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiya"si inson huquqlarini himoya qilishning huquqiy poydevorini yaratdi. Bu huquqlar shunchaki shunchaki mavhum g'oya emas, balki, odamlarga o'z hayotlarini erkin va o'zlari xohlagandek yashash imkonini beruvchi muhim manba hisoblanadi. Inson huquqlari birinchi navbatda jamiyatdagi har bir insonning fikrlariga, diniga, milliy va jinsiy xususiyatlarini e'tiborga olinishini ta'minlaydi. Bu huquqlar barcha insonlar o'rtasidagi tenglikni ta'minlaydi va ular o'rtasidagi kelishmovchiliklarning oldini oladi. Garchi, inson huquqlarini ilgari surish va himoya qilishda sezilarli yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, hali ham butun dunyoda doimiy e'tabor va jamoaviy harakatni talab qiladigan ko'plab muammolar va huquqbuzarliklar mavjud. Inson huquqi - bu insonning butun umri davomida unga hamrohlik qiladigan huquq va erkinliklardir.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi - Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining uchinchi sessiyasida 217 A(III) rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan va BMTga a'zo barcha davlatlar uchun tavsiya qilingan. Ushbu hujjatning inson huquqlari sohasidagi ahamiyati shundaki, u barcha davlatlar uchun majburiy bo'lmasa-da, u inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni belgilab berdi va keyinchalik qabul qilingan ko'plab xalqaro shartnomalar va milliy konstitutsiyalar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.¹

Hozirgi kunda barcha davlatlar inson huquqlarini ta'minlashni o'zining bosh vazifasi etib belgilangan va davlatlar konstitutsiyasining asosini ham aynan shu tashkil etadi. Yurtimizda inson huquqlarini himoya qilish sohasida juda kata harakatlar amalga oshirilmoqda. Xususan, inson huquqlari bo'yicha turli institutlar: Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz, O'zbekiston Respublikasi Oliy

¹ 10-sinf, Davlat va huquq asoslari V.A.Kostetskiy, 2017-yil



Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman), Bolalar Ombudsmani va Biznes Ombudsmani kabilar tashkil etilgan. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek: "O'zbekiston inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash bo'yicha mustaqil siyosatini qat'iy davom ettirmoqda va bu siyosat xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilmoqda."²

Asosiy qism

"Inson huquqlari" atamasi birinchi marta urush yillarida Qo'shma Shtatlarda ishlab chiqarilgan urushdan keying tashkilot haqidagi hujjatlarda oaydo bo'lgan. Biroq, konsepsiya terminologiyadan ancha eski bo'lib, u inson huquqlari va tabiiy huquqlar haqidagi diniy tafakkur kabi dunyoviy siyosiy tushunchalarga qaytadi. Inson huquqlari uchun an'anaviyroq atama "Qonun ustuvorligi" bo'ladi.

Inson huquqlarini ta'minlash har qanday davlatning ustuvor maqsadi hamda siyosatining asosiy qadriyatlaridan biriga aylanishi isbot talab etmaydigan holatdir. Vaholanki, hozirgi globallashuv jarayonining ijobiy xususiyatlaridan biri jahon xaritasida demokratik prinsplarga muvofiq ravishda shakllanayotgan suveren davlatlar tizimini kengaytirishga qaratilgandir. Asosiy qonunimizning tub negizini ham aynan inson huquqlarini har tomonlama himoya qilish, huquq va erkinlik tamoyillari, demokratik prinsplar o'z ifodasini topgan. Xususan Konstitutsiyamizning 13-moddasida O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsplarga asoslanadi, unga ko'ra, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-immati oliy qadriyat hisoblanadi. Demokaratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinishi belgilab qo'yilgan.³

Inson Huquqlarining Asosiy Tamoyillari:

- **Universiiallik:** Inson huquqlari barcha insonlarga nisbatan bir xil qo'llaniladi. Har bir insonning huquqlari tengdir va hech kim bu huquqlardan mahrum qilinishi mumkin emas

- Inson huquqlari hech qanday sharoitda olib qo'yilmaydi. Ular tug'ilganidan boshlab har bir insonga berilgan

² <http://nhrc.uz>

³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "O'zbekiston" nashriyoti 2023-yil, 8-9-b



-Inson huquqlari bir-biriga bog`liqdir. Bir huquqning buzilishi boshqa huquqlarga ham ta`sir ko`rsatishi mumkin.⁴

Mamlakatda inson huquqlari sohasidagi amaldagi holatni o`rganish, demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirishga, jamiyat va davlatni barqaror rivojlantirishga to`squinlik qiluvchi inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishni ta`minlash sohasida ayrim muammo va kamchiliklar borligini ham ta`kidlash joiz. Tan olib aytishimiz kerakki, so`ngi yillarda inson huquqlariga juda ko`p urg`u brilmoqda va har jihatdan insonlarning erkinliklari, huquqlari kafolatlab borilmoqda. Ammo, inson huquqlarini himoya qilishda bir nechta dolzarb muammolar ham ko`zga tashlanadi. Jumladan, eng dolzarb muammolar sifatida raqamli huquqlar (maxfiylik, kiberjinoyatlar), iqlim o`zgarishi, oqibatlar, migrantlar huquqlari va urush zonalari bilan bog`liq. Tendensiyalar xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish, gender tengligi va sud-huquq islohotlari orqali himoya mexanizmlari mustahkamlab borilmoqda. Yurtimizda inson huquqlari sohasidagi tizimli muammolarga to`xtalib o`tsak:

Birinchi dan: Inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlarni bajarish bo`yicha davlat organlari o`rtasida muvofiqlashtirish va o`zaro hamkorlik yetarli emas, davlat organlari faoliyatining institutsiyaviy asoslari va prinsplarining zamonaviy talablarga mos emasligi mazkur majburiyatlar sifatli bajarilishini ta`minlashga imkon bermayapti.

Ikkinchi dan: Parlament, davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlarining inson huquqlari sohasidagi faoliyati tizimli va o`zaro hamkorlikda amalga oshirilmayapti. Inson huquqlari sohasida O`zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlarni lozim darajada bajarish ustidan samarali parlament va jamoatchilik nazoratini ta`minlash bo`yicha qonunchilik va huquqni qo`llash amaliyotini takomillashtirish zarur.

⁴ O`zbekiston Respublikasining „Oliy Majlisning inson huquqlari bo`yicha vakili to`g`risida“gi qonuni 2004-yil 27-avgust 669-//son



Uchinchidan:Huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish sohasidagi islohotlarni yangi bosqichga ko'tarish zarur.Huquqbuzarliklar profilaktikasi va oldini olish bo'yicha idoralararo faoliyat va samarali o'zaro hamkorlikni,shuningdek,davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining inson huquqlari sohasidagi faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solishni tubdan takomillashtirish talab etiladi.

To'rtinchidan:sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar normalarini qo'llash amaliyoti yo'lga qo'yilmagan,ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslarning inson huquqlariga rioya etlishini monitoring qilishning samarali tizimi mavjud emas hamda shartnomaviy qo'mitalarning individual xabarlarini ko'rib chiqish yuzasidan qarorlarini bajarishning mexanizmlari ishlab chiqilmagan.

Globalashuv jarayonalrining hayotimizga tez sur'atlarda kirib kelishi jamiyatimizga o'zining ham ijobiy,ham salbiy ta'sirini ko'rsatib kelmoqda.Internet-bugungi kunda ko'pgina ishlarimizni ortiqcha vaqt olmasdan hal etishimiz uchun zamin yaratdi,biroq axborot oqimining haddan ortiq ko'payib borishi,ijtimoiy tarmoqlarda insonlarning bir-birlarini kamsituvchi xatti-harakatlarining ko'payib borayotganligi,hokimiyat organlarining saytlariga to'g'ridan-to'g'ri uyushtirilayotgan hackerlik hujumlari kabilarni inson huquqlari daxlsizligiga,jamiyat xavfsizligiga jiddiy xavf soluvchi muammolar sifatida izohlashimiz mumkin.

Xulosa. Inson huquqlarining himoyasi-butun jahonda global hal qilinishi kerak bo'lgan vaziyat hisoblanadi.Davlat,xususan, o'z farovonligini muntazam ta'minlash va rivojlanishi uchun insonga ko'proq e'tabor berishi kerak.Biz bilamizki,dunyoda eng qimmat capital bu-inson kapitali.Insonga yaratilgan sharoit va uning huquqlari muhofazasi uchun davlat mas'ul hisoblanadi.Mamlakatda qanchalik insonga bo'lgan e'tabor kuchli bo'lsa, o'sha davlat o'z mavqeyining cho'qqisiga chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 9-sinf Davlat va huquq asoslari darslik,Toshkent-2024-yil 54-bet



2. 10-sinf, Davlat va huquq asoslari V.A.Kostetskiy, 2017-yil
3. <http://nhrc.uz>
4. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. ``O`zbekiston`` nashriyoti 2023-yil, 8-9-b
5. O`zbekiston Respublikasining „Oliy Majlisning inson huquqlari bo`yicha vakili to`g`risida``gi qonuni 2004-yil 27-avgust 669-//son
6. Salayeva, A., & Hakimova, M. Oila Instituti Va Gender Tenglikni Ta'minlashning Ijtimoiy-huquqiy Muammolari. Maktabgacha va Maktab Ta'limi Jurnali, 674843.